



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University

5/2024

5/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004

@buxdu\_uz

@buxdu1

@buxdu1

www.buxdu.uz

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIIY AXBOROTI**  
**SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY**  
**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**  
**2024, № 5, aprel**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:** Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiyev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor

**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bekova Nazora Jo'rayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Hamroyeva Shahlo Mirjonovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Nigmatova Lola Xamidovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Xolliyev Askar Ergashovich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Artikova Hafiza To'yurodovna**, biologiya fanlari doktori, professor

**Hayitov Shavkat Ahmadovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**Qurbonova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Ixtiyarova Gulnora Akmalovna**, kimyo fanlari doktori, professor

**Rasulov Zubaydullo Izomovich**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Mirzayev Shavkat Mustaqimovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Samiyev Kamoliddin A'zamovich**, texnika fanlari doktori, dotsent

**Esanov Husniddin Qurbonovich**, biologiya fanlari doktori, dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, professor

**Jumayev Jura**, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

**Klichev Oybek Abdurasulovich**, tarix fanlari doktori, dotsent

**G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

<b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>		
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
<b>Менглиева М.Б.</b>	Инглиз-ўзбек тилларида аспектилик парадигмаси таркиби	3
<b>G'aniyeva O.X., Axmedova A.A.</b>	AQSH ko'p madaniyatli adabiyotida travmatik realizm an'alarining ijtimoiy-nazariy asoslari	9
<b>Islomov D.Sh.</b>	Psixolingvistika haqida fikr-mulohazalar	13
<b>Khamrakulova S.F.</b>	Comparative analysis of the phraseological units expressing childhood in the english and uzbek languages	18
<b>Kodirov A.A.</b>	Differences between cognitive linguistics and linguoculturological studies	22
<b>Mirxodjaeva F.U.</b>	Zamonaviy tilshunoslikda assotsiativ maydonni o'rganish	26
<b>Muminova N.S.</b>	Haqiqat konseptining kognitiv - pragmatik tadqiqi	34
<b>Pardayeva M.Ch.</b>	Lingvomamlakatshunoslik tamoyillari tahlil va tasnifi	39
<b>Qodirova G.S.</b>	Xalq dostonlari tilini o'rganishdagi lingvostatistik metod va usullar	46
<b>Fayziyeva A.A., Qurbonov L.U.</b>	Phraseological units in english and their analysis	50
<b>Qurbonova N.M.</b>	Jahon tilshunosligida rang bildiruvchi sifatlarning tadqiqi masalasi	54
<b>Rakhimova Sh.R.</b>	The use of staccato sentences in narrative fragmentation in Colum Mccann's "Transatlantic"	60
<b>Samandarova G.Y.</b>	Qo'shma gap shaklidagi "hasharot" lmg asosida shakllangan paremalarning ayrim xususiyatlari	64
<b>G'aniyeva O.X., Sattarova A.S.</b>	Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlarini o'rganish – zamon talabi	69
<b>Usmonova Z.H., Azimjonova E.T.</b>	Challenges in listening comprehension through a comparative (on the example of Judith Mcnaught and Abdulla Kodiri's works	73
<b>Qambarova M.M.</b>	Arxitektura-qurilish terminlari lug'atlarining chog'ishtirma tahlili	79
<b>Akramov B.Q., Zaripov J.A.</b>	Fransuz tilida tijorat terminoleksikasining lingvomadaniy xususiyatlari	85
<b>Сафин Д.Ш.</b>	Теоретические особенности исследования современных	89

**QO‘SHMA GAP SHAKLIDAGI “HASHAROT” LMG ASOSIDA SHAKLLANGAN  
PAREMALARNING AYRIM XUSUSIYATLARI**

*Samandarova Gulnoz Yarashovna,  
BuxDU O‘zbek tilshunosligi va  
jurnalistika kafedrasida dotsenti  
[gulnozsamandarovna1102@gmail.com](mailto:gulnozsamandarovna1102@gmail.com)*

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada qo‘shma gap ko‘rinishli xalq maqollari o‘zining birinchi navbatda ta’sirchanligi bilan ajralib turishi qayd etilgan. “Hasharot” nomi bilan shakllangan maqollarning leksik tarkibidan ba’zi bir so‘zlar tushib qolishi, bir maqolning variantlari bir-biridan turli zamon shakllarida kelishi, tuzilishi qo‘shma gapga teng keluvchi maqollarning qismlari o‘zaro o‘rin almashishi, qo‘shma gap tuzilishli xalq maqollarining qismlarini bog‘lovchi vositalar ham turlicha ekanligi haqida ma’lumotlar berilgan. Ularning qismlarini, asosan, teng, ergashtiruvchi bog‘lovchilar bog‘lashi misollar orqali izohlangan. Qo‘shma gap tuzilishli maqollar tarkibi o‘zigi xos leksik, morfologik jihatlarga ega ekanligi yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** qo‘shma gap, parema, hasharot, maqol, matal, qadriyat, bog‘lovchi, bo‘lishli fe‘l, bo‘lishsiz fe‘l.*

**НЕКОТОРЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ПАРЕМ, Сформированных НА ОСНОВЕ ЛМГ  
«НАСЕКОМОГО» В ВИДЕ КОМБИНИРОВАННОГО ЗАЗОРА**

***Аннотация.** В данной статье отмечается, что народные пословицы с видом сложносочиненного предложения отличаются прежде всего своей выразительностью. В лексическом составе пословиц, образованных под названием «насекомое», отсутствуют некоторые слова, варианты одной и той же пословицы стоят в разных временах, части пословиц, структура которых эквивалентна сложносочиненному предложению, перепутаны местами, составная информация при том, что средства соединения частей народных пословиц со структурой предложения также различны. Их части чаще всего связаны равными, связками и они пояснены на примерах. Объясняется, что состав пословиц со структурой сложносочиненного предложения имеет свои лексические и морфологические аспекты.*

***Ключевые слова:** сложное предложение, парема, насекомое, пословица, поговорки, традиция, союз, переходный глагол, непереходный глагол.*

**SOME CHARACTERISTICS OF PAREMAS FORMED ON THE BASIS OF "INSECT" LMG  
IN THE FORM OF A COMBINED GAP**

***Abstract.** This article notes that folk proverbs with the appearance of a compound sentence are distinguished primarily by their expressiveness. In the lexical composition of proverbs formed under the name “Insect”, some words are missing, variants of the same proverb are at different tenses, parts of proverbs whose structure is equivalent to a compound sentence are mixed up in places, composite information despite the fact that the means of connecting parts of folk proverbs with sentence structure are also different. Their parts are most often connected by equal, bundles and they are explained with examples. It is explained that the composition of proverbs with the structure of a compound sentence has its own lexical and morphological aspects.*

***Keywords:** compound sentence, parema, insect, proverb, sayings, meaning, conjunction, transitive verb, intransitive verb.*

**Kirish.** Hozirgi kunda har jihatdan taraqqiy etib borayotgan yurtimizda aynan ilmiy sohada yuz berayotgan katta o‘zgarishlar o‘zbek tilining taraqqiyotiga, ayniqsa, uning leksikasi rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu o‘zgarishlar tilimiz lug‘aviy tarkibining nafaqat miqdor jihatdan, balki uning sifat jihatdan ham rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda.

Ma’lumki, xalqlar o‘z asriy hayotlari natijasida juda katta tajribaga ega bo‘ladi va mana shu tajribalar asosida ulkan ma’naviy boylik sanalgan paremalar kabi birliklarni shakllantirib, ularni kelajak avlodga meros

qilib qoldiradi. Bu durdonalarning yuzaga kelishiga juda uzoq yillar, asrlarni o'z ichiga olgan har bir millatning etnik, kundalik-maishiy, hayotiy tajribalari, urf-odatlarini asos bo'lar ekan, ularni asrab-avaylash, boyitish va o'rganish har bir xalq zimmasidagi eng dolzarb vazifa bo'lib qolaveradi.

Maqollar millat ko'zgusidir. Ushbu ko'zguda maqollarni yaratgan xalqning milliy, ma'naviy qadriyatlarini, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, badiiy-estetik, ekologik, iqtisodiy, diniy qarashlari aks etib turadi. Shu bois, ular vositasida ma'lum bir millatning milliy xarakter xususiyatlarini ochib berish mumkin. O'zbek tilida ko'pgina maqollar lug'ati mavjud. Ammo hozirgacha nashr etilgan to'plamlar ichida T.Mirzayev, A.Musaqulov va B.Sarimsoqovlar tomonidan tuzilgan "O'zbek xalq maqollari" va Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlar tomonidan nashr etilgan "Ma'nolar maxzani" nomli to'plamlar o'zida maqollarni nisbatan to'laroq qamrab olgan.

Movarounnahrda XI asrdan keyingi adabiyotda pand-nasihati, ta'lim-tarbiyaga oid xususiyatlar yetakchilik qilgan. Shuning uchun ham O'rta asrlarda yaratilgan ko'plab asarlar, asosan, pandnoma janrida yaratilgan va ularning deyarli barchasida insonlardagi yuksak axloqiy fazilat hisoblangan saxiylik e'zozlanib, baxillik esa qoralangan. Shunday asarlar sirasiga Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" ("Haqiqatlar tuhfasi"), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Saodatga yo'llovchi bilim"), Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asarlari kiradi. Ko'rib turganimizdek, bunday bag'rikenglik, saxovatpeshalik, odamiylik fazilatlarini asrlar davomida ajdodlarimizning eng ezgu amali hisoblanib, qadriyatga aylangan. Ushbu qadriyatlar momolarimiz, bobolarimiz tomonidan avloddan avlodga o'tib kelmoqda.

Maqollar shunday kitobki, u hech qachon o'qib tugatilmaydi, shunday musiqa asariki, uni oxirigacha ijro etib bo'lmaydi. Ularning har biri zamirida shu xalqqa xos va mos bo'lgan, tarixan shakllangan madaniyat jihatlari bor va ular shu xalqning ruhiyatini, mentalitetini, xarakterini aniqlab beradi. O'zbek xalq maqollarida ham xalqimizning shunday odat, an'ana va fazilatlarini aks etganki, ular boshqa xalqlarda yo'qligidan insoniyat ma'naviyatining nodir jihatlari sifatida boshqalarda hayrat uyg'ota oladi.

Bugungi kunda o'zligimizni anglash uchun boy tariximiz hamda madaniyatimizni, ota-bobolarimizning unutilmas asarlarini o'rganish, diniy va dunyoviy tafakkurini bilish zaruriyati kuchaymoqda. Bu zaruriyatni qondirish uchun xalq maqol va matallarini ilmiy tadqiq etish, har tomonlama chuqur o'rganish birinchi darajali ehtiyojdir. O'tmishdan bugungi kunga qadar yashab kelib, millatimiz boyligiga aylangan paremalarni o'rganish va tahlil etish hozirgi kundagi dolzarb vazifalardandir.

Til va badiiy ijodning o'ziga xos hodisasi sifatida paydo bo'lgan "hasharot" lug'aviy ma'naviy guruhi asosida shakllangan paremalar xalq og'zaki ijodining ixcham shakli, ammo keng ma'noga ega bo'lgan bir turidir. Ularning har biri tilimiz chiroyini, ajdodlarimiz aql-zakovati va tafakkurini, qolaversa, mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan ko'rsata olganki, xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari asosida shakllangan tilimizning tarixdan suv ichgan nodir irmoqlari uning maishiy turmush tarzi, urf-odat va an'analari, hayot yo'li haqida batafsil ma'lumot bera oladi.

Har qanday nutqiy bayon grammatik jihatdan o'zaro bog'langan, mazmunga xos so'z va so'z birikmalar, joiz bo'lsa, maqol, matal, ibora yoki umumiy qilib aytganda, paremalarning ma'lum izchillikda va mantiqan o'z o'rnida joylashtirilishidan tuziladi. Kishining lug'ati qanchalik boy va rivojlangan bo'lsa, uning nutqi ham shunchalik ravon bo'ladi, o'z fikrini aniq, to'g'ri va ifodali bayon etishiga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug'at boyligi, xilma-xilligi, rang-barangligi nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning muhim sharti hisoblanadi. Maqollar ham inson nutqini boyituvchi, fikrini o'rinni dalillash uchun xizmat qiluvchi vositalardan sanaladi.

**Asosiy qism.** Qo'shma gap sodda gaplar bilan mustahkam bog'langan, biroq undan ham struktur, ham uzatilayotgan axborot nuqtayi nazaridan farqlanuvchi sintaktik qurilma hisoblanadi. Shu bois qo'shma gapning umumiy lisoniy mohiyati uning sodda gaplar bilan o'zaro munosabatida ochiladi. Lisoniy struktura jihatidan qo'shma gapning sodda gapdan farqi ma'lum darajada ravshan. Aniqrog'i, sodda gapda shakllangan kesim bitta bo'lsa, qo'shma gapda u birdan ortiq bo'ladi va birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi.

Qo'shma gap grammatik shakllangan va birdan ortiq axborotni tashish uchun mo'ljallangan sodda gaplarning grammatik, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatlardan yaxlitlangan butunligidir. O'zbek tilshunosligida qo'shma gaplarga oid ilk ma'lumot 1941-yilda H.G'oziyev tomonidan berilgan. Olimning "Hozirgi zamon o'zbek tilida ergash gaplarning sostavi" nomli ishida qo'shma gaplarning tuzilishi haqidagi fikrlar bayon qilingan.

1955-yilda F.Kamolning qo'shma gaplarning maqomi, tasnifi masalasiga oid ishi e'lon qilindi. 1960-yillarda qo'shma gapning sintaktik tuzilishi, uning turlari masalasi haqida G'.Abdurahmonov va M.Asqarovalarning bu boradagi ishlari ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Qo'shma gaplarga semantik-sintaktik hamda shakliy-vazifaviy yondashishga bo'lgan qiziqish qizg'in kuchaymoqda. N.Mahmudov, A.Berdialiyev, S.Solixo'jayeva, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova kabi olimlarning tadqiq ishlari bunga misol bo'la oladi.

O'zbek xalq maqollari tarkibida hasharot nomlari bilan bog'liq paremlar salmoqli o'rin egallaydi.

Qo'shma gap ko'rinishli xalq maqollari o'zining birinchi navbatda ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Ularda ohangdorlik, yuqori ko'tarinkilik balqib turadi va bu holat tilning turli vositalaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Jumladan, maqolning **leksik tarkibidan ba'zi bir so'zlar tushib qoladi**. Leksik tashlash bilan yuzaga keladigan bunday elliptik variant o'ziga xos bo'lgan variantdan izohlanish darajasiga ko'ra farqlanadi: bunday elliptik variantlarda izohlanish imkoniyati kamayadi, ma'noni shartli qabul qilish kuchayadi. Leksik qo'shishga nisbatan leksik tashlash maqollarda ko'pchilikni tashkil etadi. Chunki til hamisha ixchamlikka, qisqalikka intiladi, ayniqsa, bu og'zaki nutqda, personajlarning dialoglarida yaqqol namoyon bo'ladi. Kuzatishlarimizdan shu narsa ayon bo'ldiki, qo'shma gap tuzilishiga ega bo'lgan maqollarda quyidagi elliptik holatlar sodir bo'lishi mumkin:

a) ikkinchi sodda gapning egasi tushib qoladi:

*Arining uyasiga tegsang, arilar o'rta olib talaydi.*

*Arining uyasiga tegsang, o'rta olib talaydi.*

Bu parema arining yashash tarzi asosida shakllangan bo'lib, ari o'z iniga begonalarining teginishini yoqtirmaydi. Tabiatda ari jamoa bo'lib yashaydigan hasharotlar turiga kirgani uchun uning iniga tekkanlarni ham jamoasi bilan birgalikda talaydi. Arilar faqat o'z uyalaridagi voyaga yetmagan avlodlarining parvarishi bilan band bo'ladi, lekin kimdir ularga daxl qiladigan bo'lsa, unga qarshi birgalashib kurashga kirishadi. Maqolda: "Tinch yotgan, senga ziyoni tegmagan narsaga sen ham tegma, o'zingga ziyon yetkazasan", deya ogohlantiriladi.

b) qo'shma gap tuzilishiga ega bo'lgan maqollarda barcha sodda gaplarningning kesimi tushib qoladi:

*Bit – g'amdan paydo bo'ladi, burga – namdan paydo bo'ladi, pashsha – dimdan paydo bo'ladi, kana – go'ngdan paydo bo'ladi.*

*Bit – g'amdan, burga – namdan, pashsha – dimdan, kana – go'ngdan.*

Paremlarning paydo bo'lishida bit, kuya, pashsha va kanaaning yashash tarzi asos bo'lgan. Ya'ni o'tmishda, yoppasiga ocharchilik bo'lgan kezlarda, ular el orasida ko'payib ketib, turli yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo'lgan. Xalq ongida bit g'amdan paydo bo'ladi, degan tushuncha mavjud.

d) qo'shma gap tuzilishli maqollarda ikkala sodda gapning kesimi ham bir xil so'z bilan ifodalangan bo'lsa, birinchi sodda gapning kesimi tushib qoladi, uning vazifasi ikkinchi sodda gapning kesimiga yuklatiladi:

*It achchig'ini turnadan oladi, bit achchig'ini burgadan oladi.*

*It achchig'ini turnadan, bit achchig'ini burgadan oladi.*

e) qo'shma gap tuzilishli maqollarda ikkala sodda gapning kesimi ham bir xil so'z bilan ifodalangan bo'lsa, ikkinchi sodda gapning kesimi tushib qoladi. Bunday hodisa maqollarda juda ko'p uchraydi:

*Tirishqoqlikni chumolidan o'rgan, dangasalikni qurbaqadan o'rgan.*

*Tirishqoqlikni chumolidan o'rgan, dangasalikni qurbaqadan.*

*Itidan yorug'lik chiqmas, bitdan – chorug'lik chiqmas.*

*Itidan yorug'lik chiqmas, bitdan – chorug'lik.*

f) qo'shma gap tuzilishli maqollarning ikkinchi qismi to'raligicha tushib qoladi:

*Chayonning kasbi – nish urmoq, Xoh dushman-u, xoh o'rtoq.*

*Chayonning kasbi – nish urmoq.*

*Yomon arida bol bo'lmas, suvsiz yerda – tol.*

*Yomon arida bol bo'lmas.*

Manbalarda aytilishicha, tarkibi grammatik jihatdan o'zgaradigan maqollarning umumiy miqdori tarkibi leksik jihatdan o'zgaradigan maqollardan ko'pdir. Qo'shma gap shaklidagi maqollarda grammatik ko'rsatkichlarni almashtirish natijasida hosil bo'ladigan variantlar boshqa tur variantlarga nisbatan ancha ko'proq uchraydi. Bular quyidagilar:

1. Bir maqolning variantlari bir-biridan turli zamon shakllarida kelishi bilan farqlanadi:

*Chumchuqqa qo'ysam ko'zanak, ilindi unga so'zanak.*


*Chumchuqqa qo'ysam ko'zanak, ilinar unga so'zanak.*

2. Grammatik variantlar bir zamonning turli shakllarida kelishi bilan ham o'zaro farqlanadi:

*Arining zahrini chekmagan – bolning qadrini bilmas.*

*Arining zahrini chekmagan – bolning qadrini bilmaydi.*

*Chivinning chechani axlatga qo'nadi.*



**“SCIENTIFIC REPORTS  
OF BUKHARA STATE  
UNIVERSITY”**

The journal was composed  
in the Editorial and  
Publishing Department of  
Bukhara State University.

**Editorial address:**

Bukhara, 200117  
Bukhara State University, main  
building, 2<sup>nd</sup> floor, room 219.  
Editorial and Publishing  
Department.  
[https://buxdu.uz/32-buxoro-  
davlat-universiteti-ilmiy-  
axboroti/131/131-buxoro-davlat-  
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)  
e-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

Printing was permitted  
30.05.2024 y. Paper format  
60x84,1/8. Printed in express  
printing method. Conditional  
printing plate – 35,30.  
Circulation 70. Order № 30.  
Price is negotiable.  
Published in the printing house  
“BUKHARAHAMD PRINT” LLC  
Address: Bukhara,  
K.Murtazayev street, 344